

## Talabalikning ilk damlari

Har bir damni mazmunli o'tkazish inson taxayyuli va tasavvur dunyosini boyitmasdan qolmaydi. Chunki u ko'radi, eshitadi, mushohada yuritadi. Institutimizning 1- kurs talabalari 2020 - yil 21 - noyabr shanba kunida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish yuzasidan YRB fakulteti birinchi bosqich 108 - guruh talabalari va guruh rahbari Y.A.Usmonov boshchiligida poytaxtimizning diqqatga sazovor joylariga tashrif buyurishdi. Jumladan, talabar Mustaqilik maydoni va Olimpiya Shon- Shuhrat muzeylariga tashrif buyurishdi. Talabalarda talabalikning ilk kunlaridayoq ona vatanga bo'lgan muhabbati yana oshganligini sezmaslik mumkin emas. Tadbirdan so'ng talabalar institutimiz rahbariyatiga katta minnatdorlik bildirishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati